

GADOIY G‘AZALLARIDA YOZ FASLI TASVIRI

Askarova Zebiniso Akbar qizi

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o‘zbek tili adabiyoti 10-1 UZA-21 guruhi talabasi

E-mail: askarova.zebiniso@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada XV asrning yetuk shoiri Gadoiy ijodidagi yoz tasviri o‘rganiladi. Unda shoir lirikasidagi yoz fasli bilan bog‘liq she‘rlar tahlili orqali Gadoiy peyzajning mohir ustasii ekanligi haqida fikr yuritildi. Bu esa bizga Gadoiy she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari, uning badiiy mahorati haqida muayyan xulosalarni ifodalash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: peyzaj, lirika, g‘azal, badiiy mahorat, shoir, lirik qahramon, tuyg‘u, poetik ifoda, obrazli tasvir, lirik meros, tashbeh, mubolag‘a.

Tarix zarvaraqlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida faxrlansak arzigulik shoirlarimiz borligini ko‘ramiz. Mavlono Gadoiy Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari yetuk shoirlarimiz qatori o‘zbek mumtoz she‘riyatini boyitdi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida “Mavlono Gadoiy turkigo‘ydur, balki mashohirdindur. Bobur Mirzo zamonida she‘ri shuhrat tutti. Bir na‘vi aytur va uning mashhur matla‘laridin biri budurkim:

Ohkim, devona ko‘nglum muftalo bo‘ldi yana,

Bu ko‘ngulning ilkidin jong‘a balo bo‘ldi yana.

Mavlononing yoshi to‘qsondin o‘tubtur. Bu matla aningdurkim:

Dilbaro, sensiz tiriklik bir balo jon emish –

Kim, ani dardi qoshida yuz o‘lum hayron emish” [1...]¹, – deya fikr bildiradi.

Demak shoir umrining oxirigacha o‘zini ijodga bag‘ishlagan. Hazrat Navoiy ma‘lumoti orqali shoirning o‘z davrida mashhur bo‘lganini, uzoq umr ko‘rganini bilib olamiz.

Adabiyotshunos N.Rahmonov fikricha, Gadoiy ijodida asosan “turkiy” deb ataluvchi surud vazni (ramali musammani maqsur – foilotun / foilotun / foilotun / foilon)da g‘azallar bitgan². Ayni damda, shoirning she‘rlari badiiyati ham o‘ziga xos. Gadoiy o‘z davri insonlarining qiyofasini, tabiatini, shug‘ullanayotgan faoliyatini va

¹ 1.Alisher Navoiy.Majolis un-nafois.- Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1966. 7-bet.

² Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – B.466-467.

o‘zining ichki kechinmalarini aks ettirishda tabiat manzaralaridan foydalanadi. Bunday an’anani Atoiy, Sakkokiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy kabi shoirlarning ijodida ham kuzatish mumkin. Masalan, Atoiyning “Vaqti bo‘ldi” radifli g‘azalida “bahor – ko‘rk va chiroy, tug‘ilmoq va unmoq fasli, u dilrabo fasl, inson esa bularning hammasidan ham yanada ko‘rkli va dirabo, Yer – sevgi, hayot va insonga muhabbatning tajassumi”¹, – degan g‘oya aks ettirilgan. Mumtoz shoirlar ijodini tadqiq qilish jarayonida ularda peyzaj tasviri alohida o‘rin egallashiga guvoh bo‘lish mumkin. Har bir fasl ramziy ifodalalar bilan tasvirlanadi. Masalan, qish – baxtsizlik, yovuzlik, razolat va qabohat, bahor – yasharish, nafosat va betakrorlik, yoz – noz-ne‘matlarga boy, to‘kin-sochinlik ramzi sifatida ifodalansa, kuz – xazonrezgilik fasli sifatida qayg‘u-hasratlarning bo‘lajak fojiasining xabarchisi tarzida tasvirlanadi. Ramziy tasvirlash orqali hayotdagi muammolar ifodalanadi, shuningdek, lirik qahramonning qalb tug‘yonlari, kechinmalari yoritiladi. Shoirlarimiz shu yo‘l orqali jamiyat va inson tabiatidagi ayrim muammolarni, hayot qiyinchiligini, insonning o‘y va kechinmalarini, orzu-niyatlarini ochib berishadi.

Gadoiyning yoz tasviriga bag‘ishlangan ko‘pgina g‘azallari mavjud bo‘lib, ularda Movarounnahr va Xurosondagi yoz fasli, bu faslda noz-ne‘matlar mo‘lligi bilan bog‘liq holda lirik qahramon qalbidagi ichki kechinmalar aks ettirilgan. Yoz fasli shoir g‘azallarida lirik qahramonni ishqqa giriftor qiluvchi fasl sifatida keltiriladi. “Yoz fasli” deb nomlanuvchi g‘azali bunga yaqqol namuna bo‘ladi:

*Yoz fasli el bori bu lazzat-u ishrat bila,
Yolg‘uzun men muftalo dard-u g‘am- u mehnat bila.
Xalq xush gulgasht etarlar g‘unchatek o‘ynab-kulub,
Kunji mehnattur dag‘i men yig‘lab-yu hasrat bila.
Yerga tushgay kul bo‘lib bu saqfi mino shaksizin,
Subhidam gar oh urub qilsam fig‘on riqqat bila.
Hosil aytur: “Ul eshikda xorsen tuproqtek”,
Og‘zi-og‘zig‘a urung, so‘zlasun izzat bila.*

Keltirilgan g‘azalda Gadoiy yoz faslida insonlarning barcha noz-ne‘matlardan bahramand bo‘lib, gul sayllariga chiqishi, o‘ynab-kulib yurgani, lirik qahramon esa ishq dardi bilan ko‘zyosh to‘kayotganini obrazli tasvirlaydi. Birinchi baytda “lazzat-u ishrat, dard-u g‘am-u mehnat” so‘zlari orqali tanosib san‘atini yuzaga keltiradi. Ikkinchi baytda esa “g‘unchatek” so‘zini keltirish orqali tashbeh san‘ati qo‘llaniladi. Xalq mushabbih, g‘uncha mushabbih, o‘ynab-kulish vajhi shabeh, ya‘ni oradagi o‘xshashlik, -dek qo‘shimchasi vositayi tashbeh bo‘lib, tashbeh san‘atini yuzaga keltirgan. Uchinchi baytda agar subhi-saharda ishqdan oh-fig‘on ursam, osmon

¹ Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘rta va oliy maktab, 1963. – B.346-347.

gumbazi yorilib, yerni shisha rangli shudring qoplaydi, – deyish orqali peyzajni yuzaga keltirar ekan, mubolag‘ani hosil qiladi. Ayni damda, shoirona dalillash, chiroyli tasvirlash orqali husni ta‘lil san‘atiga murojaat qilingan. To‘rtinchi baytda shoir mahoratining o‘ziga xos qirrasini namoyon bo‘lgan. Unda shoir o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni hosil tilidan keltiradi, demakki, intoq san‘ati yordamida tabiatni so‘zlatadi. Hosil obrazi ko‘magida ishq yo‘lida inson tuproqqa tengligi aytiladi. Shu fikrning o‘ziyoq shoirning tasavvufona fikrlaganini dalillaydi. Baytda “tuproqtek ” so‘zi orqali tashbeh she‘riy san‘ati qo‘llangan. Gadoiy yozning sifatlarini lirik qahramon ichki kechinmalari bilan bog‘liqlikda keltirib, tasvirning jonli va ta‘sirli chiqishini ta‘minlash maqsadida rang-barang badiiy san‘atlarga murojaat qilgan va go‘zal lavhalar yaratganini yuqoridagi g‘azalda ko‘rishimiz mumkin.

Ey raqib, oxir seni ovora qilg‘umdur, deding,

To ne yerga yetgasen nahs bu niyat bila.

Chun azaldin g‘ussa- yu g‘amdur nasibing, ey ko‘ngul,

Ne ishing bordur jahonda shodi- yu lazzat bila.

Garchi hasrat birla o‘lturdung Gado xor-u zor,

To qiyomat umr bersun haq sanga davlat bila.

Bu baytlar orqali shoir oldingi fikrlarini mantiqan davom ettiradi. Bunda shoir raqibga, ko‘ngulga murojaat qilish orqali nido san‘atini yaratgan. Ey raqib, meni har zamonda ishq yo‘lidan adashtirmoqchi bo‘lasan, lekin bu yomon niyating bilan qayergacha ham borarding deya oh uradi. G‘azallarni o‘rgangan adabiyotshunos O.Nosirov raqib obrazi haqida shunday yozadi: “Bu davr g‘azalyotidagi raqib obrazining xarakterli xususiyati shuki, u ma‘lum darajada realistik mohiyat kasb etadi. Shoirlar raqib obrazini sotqin, ikkiyuzlamachi, yolg‘onchi, ... sevgi-muhabbatdan mahrum kabi sifatlar bilan chizadi. Bu davrda yana shunday kishilar rohat-farog‘atda yashayotgani, ular oshiqlar baxtiga chang solib, boshiga bitmas-tuganmas alamlar keltirganliklari, oshiqlar rashk o‘tida qovurilayotganliklari g‘azalda hayot haqiqati bilan dalillanadi”¹. Shoir Gadoiy ham raqib obraziga nisbatan ana shunday munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Keyingi baytda ko‘ngilga murojaat qilib, “Ey ko‘ngil, tushungin, ishq senga azaldan peshonangga yozilgan nasibangdir”, – deydi. Oxirgi baytda shoir o‘ziga murojaat qiladi: Garchi ishq seni Gado xor-zor qilsa-da, haq, ya‘ni Alloh seni qiyomatda, albatta, o‘z vasliga yetishtiradi, – deya taskin beradi. Gado taxallusi orqali o‘zining so‘fiyiga ishora ham bor. Bu haqida tadqiqot olib brogan M.F. Ko‘prulu Gadoiy taxallusini quydagicha tushuntiradi: “Avtorning o‘ziga “Gadoiy va Gado” degan poetik nomini olganligiga ko‘ra, bizning shoir (ya‘ni Gadoiy – E.A.) so‘fimizga moyil bo‘lganki, bu narsa Abulqosim Bobir saroyida hukmron bo‘lgan umumiy tendensiyasiga

¹ O. Nosirov. O‘zbek adabiyotida g‘azal. 38-bet.

muvofiqdir”¹. Adabiyotshunos E. Rustamov esa shoirning adabiy taxallusi – “Gadoiy” ko‘proq uning naqshbandiylik ordeni bilan aloqada bo‘lganligidan darak beradi, degan fikrni ilgari suradi².

G‘azaldan ko‘rinib turibdiki, shoirning lirik qahramoni sabr-u qanoatli, Alloh vasliga yetishish yo‘lidagi mashaqqatlarga chidamli, mustahkam irodali, kelajakka umid ko‘zi bilan boquvchi inson. U faqat Allohdan marhamat kutadi, agar o‘z maqsadiga yetsa raqibning yomonliklarini va jahon shodliklaridan kechganlari ta’sir etmasligini ta’kidlaydi. Chunki Alloh vasliga va e’tiboriga erishish oldida har qanday qiyinchiliklar o‘tkinchiligini shoir chuqur anglab yetgan. Shoir minglab o‘zi singari yurtdoshlarini o‘tkinchi bo‘lgan aysh-ishratdan yiroq yurishlariga undaydi.

Yana birinchi g‘azalga qaytsak. Undagi baytlarda ramziy ifoda usullariga murojaat qilib, yoz deganda to‘kin-sochinlik va baxtli hayot nazarda tutilgan. G‘azalning mohiyatiga inson mashaqqatlarga sabr qilsagina o‘zi istagan maqsadiga erisha olishi haqidagi falsafiy mazmun-mohiyatni singdiradi.

Gadoiy yoz bilan bog‘liq o‘rinlarda bu faslning o‘ziga xosligini yoritish bilan birga umrimizni o‘tkinchi ishlar bilan o‘tkazmasligimizni tasvirlagan. Bugungi davridayam bu g‘azallardagi falsafiy ma’nolarning ahamiyati so‘ngani yo‘q. Hozirgi zamonda ham umrning o‘tkinchiligi anglamay, vaqtlarini besamar o‘tkazayotgan zamondoshlarimiz Gadoiy g‘azallaridan ibrat olsa arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois.- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. B.7-bet.
2. M.F. Köprülü, çagatay edebiyati, - “ Islam ansikopedisi”, 3-cilt 1969 .
3. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘rta va oliy maktab, 1963. – B.346-347.
4. O. Nosirov. O‘zbek adabiyotida g‘azal, 1963. 38-bet.
5. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Sano-standart, 2017. –B.466-467.
6. Rustamov E. R. Узбекская поэзия в первине XI века, стр. 126- 145.

¹ M.F. Köprülü, çagatay edebiyati, - “ Islam ansikopedisi”, 3-cilt, 293-294-s.

² E. R. Rustamov. Узбекская поэзия в первине XI века, стр. 126- 145.